

SURXON VOHASI IJODKORLARI ASARLARIDA TARIXIY VOQEALARNING AKS ETISHI

Choriyev Sanjar Hamzanevich

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0009-1120-4066>

UDK: 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo vohasi ijodkorlarining asarlarida tarixiy jarayonlarning aks etishi, ularning milliy tarixiy ongini shakllantirishdagi roli va badiiy uslub xususiyatlari tahlil qilinadi. Ra'no Uzoqova, Shukur Xolmirzayev, Tog'ay Murod, Mengziyo Safarov, To'liq Hayit, Barat Xudonazarov kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari misolida tarixiy haqiqatning badiiy talqin usullari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo adabiy maktabi, tarixiy asar, milliy xotira, badiiy talqin, tarixiy haqiqat, manqurtlik, vatanparvarlik.

Аннотация: В статье анализируется отражение исторических процессов в творчестве творцов Сурхандарьинского оазиса, их роль в формировании национального исторического сознания, особенности художественного стиля. В произведениях таких писателей и поэтов, как Рано Узокова, Шукур Холмирзаев, Тогай Мурод, Менгзиё Сафаров, Толкин Хаит, Барат Худайназаров, раскрываются методы художественной интерпретации исторической правды.

Ключевые слова: Сурхандарьинская литературная школа, историческое творчество, национальная память, художественная интерпретация, историческая правда, патриотизм.

Abstract: This article analyzes the reflection of historical processes in the works of the creators of the Surkhandarya oasis, their role in the formation of national historical consciousness, and the features of the artistic style. The works of such writers and poets as Rano Uzoqova, Shukur Kholmirzayev, Togay Murod, Mengziyo Safarov, Tolqin Hayit, Barat Khudaynazarov reveal the methods of artistic interpretation of historical truth.

Keywords: Surkhandarya literary school, historical work, national memory, artistic

interpretation, historical truth, patriotism.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O'zbek adabiyotining rivojlanishida mintaqaviy maktablar ham alohida o'rin egallaydi. Surxondaryo vohasi – nafaqat qadimiy madaniyat o'chog'i, balki zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillarini yetishtirgan hududlardan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida bu mintaqadan chiqqan ijodkorlar o'zbek adabiyotiga nafaqat yangi mavzular va qahramonlar, balki tarixiy voqeliklarni yangicha talqin qilish usullarini ham olib kirdilar.

Ushbu maqolaning maqsadi – Surxondaryo vohasi ijodkorlarining tarixiy mavzudagi asarlarini tahlil qilish, ularning tarixiy xotirani saqlash va milliy ongini shakllantirishdagi o'rni, shuningdek badiiy uslub xususiyatlarini aniqlashdir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tarixiy voqelikning insoniy qiyofasi shoira Ra'no Uzoqova asarlarida tasvirlangan. Surxon vohamizning sevimli shoirasi Ra'no Uzoqova ijodida yovuz fashistlar bilan urushayotgan, jang maydonida vatan ozodligi uchun kurashayotgan yurtdoshlarimizni o'z ko'zi bilan ko'rib, ko'plab she'r va hikoyalarida urush holatini tasvirlaydi.

Urush mavzusi o'zbek adabiyotida keng o'rin egallagan bo'lsa-da, Ra'no Uzoqova bu mavzuni ayol shoiraning nozik his-tuyg'ulari orqali yangicha talqin qildi. Uning "Mardona yuring" to'plamidagi she'rlarida urush nafaqat jang maydonlari, balki ayollar yuragidagi izlari bilan tasvirlangan.

1942-yil Leningrad mudofaachilariga sovg'a olib borish safarida qatnashgan shoira urushni o'z ko'zi bilan ko'rgan. "Yaxshi bor" she'rida yosh kelinchakning vatan himoyasi

uchun turmush o'rtog'ini jangga jo'natishdagi qayg'u-iztiroblari aks etgan:

"Ayriliqni istamas edim,
Seni jangga qistamas edim
Judolikdan jon qiynalsa-da,
Pahlavonim, jangga bor dedim. [1: 8]

Bu misralarda shaxsiy baxt va vatanparvarlik o'rtasidagi qiyosiy tanlov, ayol qalbidagi dardli qaror mahorat bilan ifodalangan. O'zi xohlamasa-da, vatan boshiga falokat tushganda uni qutqarish er kishining burchi ekanligini tushungan yosh kelinchakning ayriliq azobini qalban his qilsa-da, o'z turmush o'rtog'ini yovuz fashistlarga qarshi kurashga chorlaydi.

Ra'no Uzoqova tarixiy voqelikni individual taqdirlar orqali ko'rsatish usulidan foydalanib, tarixning "yuqoridan" emas, "pastdan" – oddiy odamlar hayoti nuqtai nazaridan yoritilishiga hissa qo'shdi.

Vohamizning atoqli yozuvchisi **Shukur Xolmirzayevning** „So'nggi bekat“, „Yo'lovchi“ va „Olabo'ji“ romanlarida sho'ro jamiyatining 70—80-yillarga kelib ichdan yemirila boshlagani yorqin badiiy obrazlar orqali aks ettirildi. Bu romanlarda ko'tarilgan ijtimoiy masala yozuvchining „Dinozavr“ romanida o'zining yangicha badiiy talqinini topdi. Sho'ro davlatining xalqparvar davlat ekaniga, u olib borgan ichki va tashqi siyosat xalq va mamlakat manfaatiga xizmat qiluvchi siyosat ekaniga astoydil ishongan kishining hayoti va ruhiy olamidagi ziddiyatlar kurashi tasviri mazkur romanning markazida turadi.

Shukur Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan bo'lib o'zbek xalqi tarixining „bosmachilik harakati“ deb atab kelingan davrini o'rgana boshladi. Yozuvchining „Qil ko'prik“ romani va „Qora kamar“ (1987) pyesasida shu mavzu o'z ifodasini topdi. Ularda adashgan kishilar fojiasi obrazlarda yorqin gavdalandirilgan. X. pyesasi asosida Abror Hidoyatov nomidagi Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan „Qora kamar“ spektakli yosh avlodda tarixiy o'tmishga yangicha yondashish maylining paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi. Xolmirzayevning o'zbek xotin-qizlarining sho'ro davridagi fojiali taqdiriga bag'ishlangan „Ziyofat“ pyesasi ham Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan (1990).

Yozuvchining „Qadimgi Baqtriya

tuprog'ida“ Tog'larga qor tushdi“, „Jamiyatning maqsadi, ya'ni mafkura bobidagi o'ylar“ kabi esselarida ham tarixiy publitsistik yo'nalishda yozilgan. [2:71]

Totalitar tizimning psixologik ta'siri **Tog'ay Murodning** "Otamdan qolgan dalalar" romanida jonli tarzda zo'r mahorat bilan tasvirlangan.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani (1993) mustaqillik davri o'zbek adabiyotining dastlabki yirik yutug'i bo'lib, u totalitar tizimning psixologik ta'sirini "manqurtlashish" tushunchasi orqali ochib berdi. Asar haqida muallif "Birlashgan Millatlar tashkiloti a'zosi – Ozod O'zbekiston uchun bitdim...Ko'nglimda el-yurtim yo'lida nimaiki dardim bor-barini ushbu romanda to'kib soldim". [3:5]

Roman qahramoni Dehqonqul – sovet tizimi tomonidan shakllantirilgan **"tayyor manqurt"** obrazi. Uning bobosi Jamoliddin Chor Rossiyasi istilosi guvohi bo'lsa, otasi Surxoni Aqrab Qizil imperiyaga qarshi kurashgan vatanparvar edi. Dehqonqul esa otabobolarining vatanparvarlik, ozodlik va milliy g'urur tuyg'ularini butunlay yo'qotgan.

Muallif bu obrazi orqali sovet tizimining faqat siyosiy emas, balki psixologik ta'sirini ko'rsatdi. Dehqonqul qamoqda azob chekayotganda ham **"lenincha adolat"**ga umid bog'lashi, [4:528] o'z axlatini yeyishga majbur bo'lganda ham daladagi ishini o'ylashi – bu qahramonning ichki ozodlikdan mahrum bo'lganligini ko'rsatadi.

Tog'ay Murod tarixiy haqiqatni oddiy qishloq aholisi taqdiri orqali ko'rsatish usulidan foydalanib, tarixni "katta odamlar" emas, "kichik odamlar" nuqtai nazaridan yoritdi.

Ilmiy izlanish va badiiy ijod uyg'unligini esa **Mengziyo Safarov** asarlarida ko'rishimiz mumkin. Mengziyo Safarovning "Ona yer qo'shig'i" asarida Xolchayon yodgorligining ochilishi voqeasi tasvirlangan. Muallifning o'zi ham ushbu arxeologik izlanishlarda qatnashganligi asarga haqqoniylik baxsh etgan. [5:4]

Mengziyo Safarovning "Payg'ambar oroli" asari haqida "Do'stim, amin bo'ling, eng zo'r asaringiz shu – "Payg'ambar oroli". Azizim, Bedil aytib ketgan ekan: "U olam-bu olamni tushungan odam – she'r olamni tushunmasligi

mumkin. Chunki she'r – o'zga bir olamdir". Bu asar haqida mening fikrim o'sha-o'sha: Prishvin – bir yoq, Paustovskiy – bir yoq, S.Tomson-u V Biankilar – bir yoq ... siz- bir yoq! [6:5] — deb ta'kidlaydi, atoqli yozuvchimiz Shukur Xolmirzayev. Haqiqatdan ham Mengziyo Safarov asarlarida tarixiy voqealar jonli tarzda bayon etilgan.

Mengziyo Safarov o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib **ekologiya masalasi**, tabiatni ko'z-qorachiqdek asrash, yo'qolib ketayotgan jonzotlarni saqlab qolish, tabiatga kuyunchaklik ruhi badiiy ijod orqali bayon etilgan. Mengziyo Safarov ekologiya va tarixni birlashtirgan holda, tabiatni muhofaza qilish masalasini tarixiy merosni saqlash bilan bog'ladi.

To'lqin Hayit o'zbek adabiyotida tarixiy roman janrini yangi bosqichga ko'tardi. Uning "Turon tunlari" (1994), "Vafo malikasi" (2006), "Bahouddin Naqshband" romanlarida tarixiy shaxslar zamonaviy talqin bilan boyitilgan. To'lqin Hayit tarixshunoslik va adabiyotni uyg'unlashtirishga intilib, "Temur tuzuklari"ni o'rganish orqali Amir Temur obrazini chuqurroq talqin qildi.

To'lqin Hayitning 1990 yilda chop etilgan "Mirzo Ulug'bekning o'ldirilishida Xo'ja Ahrori Valiyning qo'li bormi?" hamda "Bahouddin Naqshband" maqolalari adabiy jamoatchilikda qiziqish uyg'otdi. To'lqin Hayit uzoq yillar mobaynida "Temur tuzuklari" nashrlari ustida izlanish olib borib, hammualliflikda "Ulug' Amir o'g'itlari" risolasini yaratdi. 1994 yilda Amir Temur va temuriylar davri haqidagi "Turon tunlari" nomli ilk romanini e'lon qildirdi. Romanda Amir Temur va O'ljoy Turkon og'aning birgalikda kechgan jo'shqin hayoti, ular o'rtasidagi vafo, sadoqat tarannum etiladi. Ushbu romanning ikkinchi qismi ustida muallif 2006 yilgacha, qariyb o'n yil mehnat qildi. Bu orada Bahouddin Naqshband hayotini aks ettirish uchun o'zimizda mavjud bo'lgan hamda chet el kutubxonalaridagi nodir qo'lyozmalar bilan tanishib, boy material to'pladi. 2006 yilda "Turon tunlari" yangi talqinda "Vafo malikasi" nomi bilan kitob holida o'quvchilarga yetkazildi. Shundan so'ng, To'lqin Hayitning "Qora Shaxzoda", "Bahouddin Naqshband"

romanlari nashrdan chiqdi. [7:223]

Sermahsul ijodkorning keyingi yillarda "Baqo guli" romani, "Temuriy ijodkorlar", "Amir Temur xazinasi", ozarbayjonlik ijodkor I.Veliyev bilan birgalikda "Shohi Zinda" kabi asarlari yaratildi. Bir qator asarlari ingliz, rus va arab tillariga tarjima qilindi.

Barat Xudoynazarov esa publitsistika orqali tarixiy haqiqatni keng jamoatchilikka yetkazdi. O'tgan asrning 90 — yillarida Barat Xudoynazarovning "Amir Temur iftixorimiz", "Imperiya saboqlari" kabi publitsistik maqolalarida tarixiy voqeliklarni zamonaviy siyosiy jarayonlar bilan qiyoslab tahlil qildi.

Barat Xudoynazarov publitsistikasini o'qigan kishi muallif siymosida chin vatanparvarni, milliy mafkura jabhasida bedor o'tgan fidoyi insonni ko'z oldiga keltiradi. U dunyoda bo'layotgan jarayonlarni qiyoslab tahlil qila olish bilan birga mafkuraviy nuqtai nazardan tashxis qo'yadi. Dunyo tarixini, ayniqsa sharq tarixi, madaniyati va san'atini yaxshi bilgan ijodkor sifatida Barat Xudoynazarov ozod yurtimizning obod bo'lishi, madaniyatimiz rivoji uchun qayg'urib o'nlab maqolalar yozdi.

Barat Xudoynazarov mamlakatimiz mustaqilligidan oldin hayot tashvishi bilan o'z tug'ilgan yeridan uzoqda – Moskvaga borib oddiy yumishlarda ishlagan. Uning she'rlari yurt qayg'usi bilan sug'orilgan, yurtga bo'lgan sog'inchi sezilib turadi. [8:4] Moskvada yashab ham o'zbek milliy mafkurasini targ'ib qilgan Barat Xudoynazarov tarixiy merosni milliy o'zlikni qayta qurish vositasi sifatida ko'rdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo vohasi ijodkorlari o'zbek adabiyotida tarixiy mavzuni rivojlantirishda munosib hissa qo'shgan. Ularning asarlari nafaqat o'tmishni aks ettiruvchi oyna, balki milliy ongni shakllantiruvchi, tarixiy haqiqatni qayta tiklovchi va kelajakka yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy kompas vazifasini bajaradi. Bu meros nafaqat adabiy qimmat, balki milliy tarixiy xotirani saqlash va uni yangi avlodga etkazishning samarali vositasi sifatida qadrlanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Normurod Narzullayev, Toshtemir Turdiyev “Ra’no Uzoqova Talpin, yurak” 1981-yil 8-bet.
2. Sayyora Holmirzayeva “Men otamning qiziman... Toshkent” Adabiyot” 2023. 71-bet.
3. Tog‘aymurod.” Otamdan qolgan dalalar”. — Toshkent: Sharq, 1993. 5-bet.
4. N.Karimov “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” Toshkent “O‘qituvchi” 1999. 528-bet
5. Mengziyo Safarov “Ona yer qo‘shig‘i” “Yosh gvardiya nashriyoti” Toshkent 1969. 4-bet
6. Шукур Холмирзайев “Сенинг кадринг ўтди” Ўзбекистон адабиёти ва санъати 1995-йил 6- январ Н 1 (3288).
7. Собир Мирвалийев “Ўзбек адиблари” Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи. Тошкент-2016.
8. Barat Xudoynazarov “Vatan yodi bilan” Toshkent – 2011. 4-bet.